

DALACHOY O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA UNDA
XALQ TABOBATIDA FOYDALANISH USULLARI

QDTU professor - *Sh.I.Irnazarov*
BT-210-24 guruh talabasi - *L.Y.Jo'rayeva*

Annotatsiya. Ushbu maqolada dorivor o'simliklardan biri bo'lgan dalachoyning kimyoviy tarkibi, dorivor turlari va ularni tibbiyotda foydalanish usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: ildiz, damlama, meva, poya, dorivor o'simliklar, dalachoy, qizilpoycha, qaynatma, dog'li dalachoy, gul, teshik dalachoy, po'stloq

ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ РАСТЕНИЯ ДАЛАХОЙ
И СПОСОБЫ ЕГО ПРИМЕНЕНИЯ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ

Профессор Ш.И. Ирнazarov КДТУ,
студент группы БТ-210-24 Л.Ю.Джураева

Абстрактный. В статье представлена информация о химическом составе чабреца, одного из лекарственных растений, а также о лекарственных видах и способах его применения в медицине.

Ключевые слова: корень, отвар, плод, стебель, лекарственные растения, шиповник, красные бархатцы, отвар, пятнистые бархатцы, цветок, дырчатые бархатцы, кора

CHEMICAL COMPOSITION OF THE PLANT DALAKHOY AND
METHODS OF ITS APPLICATION IN TRADITIONAL MEDICINE

Professor Sh.I. Irnazarov KDTU,
student of group BT-210-24 L.Yu.Dzhuraeva

Abstract. This article provides information about the chemical composition of one of the medicinal plants, dalacoy, medicinal types and methods of their use in medicine.

Key words: root, decoction, fruit, stem, medicinal plants, dalacoy, red root, decoction, spotted dalacoy, flower, hole dalacoy, bark

Vatanimizda shifobaxsh o'simliklarning 700 dan ziyod turi aniqlangan. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 taga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida ishlatiladi. Hozirgi paytda tibbiyotda foydalaniladigan dori vositalarining 40-47% o'simlik xom ashyolaridan tayyorlanadi.

Shifobaxsh o‘simliklarning 2 xil tasniflash usuli o‘rganilgan:

1) ta’sir qiluvchi moddalarning tarkibiga ko‘ra: alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqa shu kabilar;

2) farmakologik ko‘rsatkichlariga ko‘ra: tinchlantiruvchi, og‘riq qoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak qon-tomir tizimiga ta’sir etuvchi hamda markaziy nerv sistemasini qo‘zg‘atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va shu kabilar.

Biz insonlar tabiatdagi ne‘matlardan foydalana boshlaganimizdan beri shifobaxsh giyohlardan xastaliklarni davolashda ishlatib kelyapmiz. Bundan 3-4 ming yil avval Hindiston, Xitoy va Qadimgi Misr davlatlarida dorivor giyohlar to‘g‘risida axborot beruvchi kitoblar yozilgan. Sharqda, shu jumladan O‘rta Osiyoda xalq tabobatida shifobaxsh giyohlardan foydalanib davolash o‘zining tarixiy usullariga ega.

Dorivor giyohlar bilan davolash borasida Abu Ali ibn Sino (Avitsenna)ning “Al-qonun fit-tib” kitobida 476 ga yaqin o‘t-o‘simlikning dorivor jihatari va ulardan foydalanish usullari haqidada ma’lumotlar aytib o‘tiladi. Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) bobomiz tabiat in‘omi bo‘lgan dorivor giyohlardan har xil kasalliklarni davolashda yuqori darajada ishlatganlar. Muallif o‘z kitoblarida aynan bir giyohning o‘ziga xos xususiyatlarini ma’lum qilish bilan birga, qanday xastalikka shifo bo‘lishi, undan qay maqsadda ishlatish lozimligi tog‘risida ham ko‘rsatmalar berib o‘tilgan.

Foydali shifobaxsh giyohlardan biri bu dalachoy hisoblanadi. Dalachoy – dalachoydoshlar oilasiga kiruvchi yo‘l yoqalari, ariq bo‘ylari, o‘tloqlar, bog‘ va bedazorlar, sug‘oriladigan joylar, tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadigan o‘t yoki yarim butalardan iborat o‘t-o‘simliklar turkumi hisoblanadi. 200ga yaqin turi bor, ko‘pchilik qismi O‘rta dengiz mamlakatlari hududida o‘sadi. Vatanimizda 3 turi mavjud. Ular mahalliy xalq tilida choycho‘p, dalachoy, choyo‘t, qizilpoycha deb yuritiladi.



1-rasm. *Hypericum perforatum*



2-rasm. *Hypericum hidcote*

Dalachoy (*Hypericum* L.) turkumi namunalarining barglari oddiy va yaxlit, ko‘pchilik qismi qarama-qarshi tartibda joylashgan bo‘ladi. Bo‘yi 30-35 sm, ayrim

hollarda 1 metrgacha yetadi. Guli ro'vaksimon to'pgulda joylashgan sariq, ikki jinsli, yulduzsimon gullardan tashkil topgan. Kosachabarglari ko'pchilik qismida yarmigacha qo'shilgan bo'ladi.

Changchilari ko'p, bir-biri bilan birikkan. Urug'chisi bitta, 3-5 uyli hisoblanadi. Ularning mevasi ko'sakcha meva hisoblanadi. Vatanimizning adir, tog'li hududlarida dalachoyning *Hypericum perforatum* turini ko'plab uchratish mumkin. Iyun va sentabr oylarida gullaydi va urug'laydi.

Dalachoy o'simligining tarkibida oshlovchi moddalar, flavanoidlar (rutin, giperozid, kvertsetin, kvertsetrin va shu kabilar), karotin moddasi, smola, qand, har xil bo'yoqlar, efir moylari va S vitamini bor. Dalachoy yetishtiriladigan joylarda ko'chatlar to'liq saqlansa, vaqtida oziqlantirish, sug'orish va parazit o'simliklardan tozalash ishlari olib borilsa, har bir gektar joydan 3-4 tonna shifobaxsh xomashyo, shu bilan birga o'simlikning 500-600 kg urug'lari yig'ib olinadi.

Dalachoyni yog'idan teri tozalashda ham foydalaniladi. Qizilpoycha (*Hypericum scabrum*) - poyasi tik o'suvchi ko'p qirrali shoxlangan ko'p yillik o'simlik. Tanasi ozroq tukli bo'rtmalar hisobiga g'adir-budir. Ildizi yog'ochlashgan eni 4-10mm poyasi ko'p sonli qizg'ish-binafsha rangga bo'yalgan. To'pgul qismi kamroq shoxlangan. Barglarining uzunligi 10-15mm cho'zinchoq, lansetniksimon, cheti ichkariga o'ralgan, bezli, tukchalar bilan qoplangan. To'pgulini eni 3-5smli, ro'vak qalqonchasimon, to'pgul novdasi dag'al.

Gultojibarglari to'kilmaydigan cho'zinchoq, teskari tuxumsimon, bezli kipriklardan iborat, uzunligi 4- 10mm eni 2-4mm. Ko'saklari tuxumsimon 5-7 mm uzunlikda. Urug'i silindrsimon uzunligi 2mm zich qoplangan tukli bo'rtiqlari bilan oqish rangda. May-iyun oylarida gullab avgustda mevasi pishib yetiladi. Bu o'simlik Jizzax, Qashqadaryo hududlarining tog' yonbag'irlarida, toshli va shag'al qiyaliklarida ko'plab uchraydi.

Dog'li dalachoy (*Hypericum maculatum*) - poyasi 60sm gacha o'sadigan tuksiz, ko'p yillik, ildizpoyali o'simlik. Bu o'simlik *Hypericum tetrapterum* ham deyiladi chunki poyasining ko'ndalang kesimi to'rtburchak shaklida bo'ladi. Barglari oddiy, butun, poyada qarama-qarshi joylashgan bo'lib, shaffof bezlari kam yoki umuman bo'lmaydi. Gullari och sariq rangli diametri 10-15mm bo'lib 5 ta gulbandda 10-30tadan gulchalari joylashgan.

Qo'llash usullari: Dalachoy turkumi vakillari gullash vaqtida yerustki qismidan 15-20 sm uzunlikda poyalari qirqib olinadi va quyosh nuri tushmaydigan joylarda quritiladi. Keyin yanchib g'alvirdan o'taniladi. Quruq maydalangan 1 osh qoshiq o'tiga 1 stakan suv solib 3-4 daqiqa qaynatiladi va 2 soatdan so'ng suziladi. 1/3, 1/4 stakandan kuniga 3 mahal ovqatdan 30 daqiqa oldin ichiladi. Bu qaynatma bronxit, yo'tal, sistit, kolit, enterit va gepatit kasallashda foydalanib kelinmoqda.



Xalq tabobatida dalachoy o‘simligining damlamasi buyrak va qovuq, me‘da-ichak kasalliklari va qon aralash ich ketganda ishlatiladi, bundan tashqari bu o‘simlikdan tayyorlangan damlama antidepressant ta’sirga ega ya’ni markaziy asab tizimini tinchlantirish, stress holatlarini yaxshilash va shu kabi ta’sirlarga ega.

1-jadval

Dalachoy o‘simlik turlarining yer ustki qismida uchraydigan moddalar

№	Moddalar	% hisobida
1.	Oshlovchi moddalar	10-12%
2.	Efir moylari	0.22%
3.	Karotin	15 mg %
4.	Vitamin C	240 mg %
5.	Flavonlar (kversetin, kversetrin, giperozid va rutin)	0.9-2%
6.	Antotsian	5.6%

Abu Ali ibn Sino dalachoy o‘simligidan siydik haydovchi va og‘riq qoldiruvchi preparat sifatida va shu bilan bir qatorda turli yaralarni tuzatishda foydalangan.

Xulosa qilib aytganda, dalachoy (*Hypericum L.*) turkumi vakillarining dorivor xususiyatlarini e’tiborga olgan holda bu o‘simlikdan foydalanishni yanada kengroq yo‘lga qo‘yishni keng targ‘ib qilish kerak. Qashqadaryo viloyatida turkumning yana qanday vakillari borligi va ularda o‘rganilmagan dorivor xususiyatlarni chuqurroq o‘rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Akopov I.E “Eng muhim mahalliy dorivor o‘simliklar va ulardan oqilona foydalanish” Toshkent: Tibbiyot-1986.
2. Xolmatov X.X., Ahmedov O‘. A. , Musayeva N.A. “Farmakognoziya va botanika asoslari” Toshkent-2017 (263-264-betlar)
3. Tursunboyeva G., Komilova Sh. “ Botanika asoslari” Toshkent-2009
4. Berdiyev E.T., Hakimova M.X., Maxmudova G.B. “O‘rmon dorivor o‘simliklari” Toshkent-2016 (218-bet).